

MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA AXLOQIY SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHDA OILANING O'RNI

Mahmudova Dilafruz Baltabayevna

Nordik xalqaro universiteti,
Psixologiya va maktabgacha ta'lim kafedrası
dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada milliy qadriyatlar asosida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda axloqiy sifatlarni shakllantirishda oilaning o'rni tahlil etiladi. Bolaning axloqiy tarbiyasida oila birlamchi tarbiya muhitini yaratishi, milliy va ma'naviy qadriyatlarni singdirishi muhim omil sifatida qaraladi. Shuningdek, ota-onalarning shaxsiy namuna ko'rsatishi, o'zbek an'analari va urf-odatlarini orqali bolalarni mehribonlik, halollik, o'dob-axloq qoidalariga o'rgatish jarayonlari yoritiladi. Maqolada oilaning pedagogik hamkorligi va ta'lim muassasalari bilan uyg'un faoliyat yuritishi bolaning axloqiy kamoloti uchun zarurligi ta'kidlanadi. Tadqiqot natijalari milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiya jarayonini samarali tashkil etish bo'yicha tavsiyalar bilan boyitilgan.

Kalit so'zlar. milliy qadriyatlar, axloqiy tarbiya, maktabgacha ta'lim, oila, ota-ona, axloqiy sifatlari, ma'naviyat, an'ana, o'dob, tarbiya usullari.

Аннотация. В данной статье анализируется роль семьи в формировании нравственных качеств у детей старшего дошкольного возраста на основе национальных ценностей. Рассматривается, что семья является первичной средой воспитания ребенка и играет важную роль в привитии национальных и духовных ценностей. Также освещается процесс воспитания детей на основе узбекских традиций и обычаев, личного примера родителей, приобщения к таким качествам, как доброта, честность, соблюдение норм морали и этикета. В статье подчеркивается важность педагогического сотрудничества семьи и образовательных учреждений для нравственного развития ребенка. Результаты исследования обогащены рекомендациями по эффективной организации процесса нравственного воспитания на основе национальных ценностей.

Ключевые слова. национальные ценности, нравственное воспитание, дошкольное образование, семья, родители, нравственные качества, духовность, традиции, этикет, методы воспитания.

Annotation. This article analyzes the role of the family in shaping the moral qualities of older preschool children based on national values. The family is considered a primary environment for child upbringing and plays a crucial role in instilling national and spiritual values. The article highlights the process of educating children through Uzbek traditions and customs, parental role modeling, and teaching kindness, honesty, and moral-ethical norms. It also emphasizes the importance of pedagogical cooperation between the family and educational institutions for the child's moral development. The research findings are enriched with recommendations for effectively organizing the moral education process based on national values.

Keywords. national values, moral education, preschool education, family, parents, moral qualities, spirituality, traditions, etiquette, upbringing methods.

Kirish. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida milliy qadriyatlar asosida axloqiy sifatlarni shakllantirishda oilaning o'rni ta'kidlash borasida olib borilayotgan faoliyat mavzulari barkamol avlodning har tomonlama kamol topishiga, axloq-odobli shaxs bo'lib ulg'ayishiga yordam berishi kerak. Maktabgacha yoshidagi bolalarda milliy qadriyatlar asosida

axloqiy sifatlarni shakllanishida maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan birga, oilalarning mavjud holatini o'rganish ham muhim ahamiyatga egaligi bilan muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha yoshdagi bolalarning bo'sh vaqtlari oila davrasida o'tadi.

Milliy qadriyatlar asosida axloqiy sifatlarni shakllantirishda bolaning yosh xususiyatlarini inobatga olish muhimdir. Bolaning yosh xususiyatlariga qarab, milliy qadriyatlar asosida axloqiy sifatlari tarbiyalanadi.

Qadimgi yunon faylasuflari Aflotun va Arastu bola tarbiyasini jamiyat o'z ixtiyoriga olishi, tarbiya jarayonidagi barcha zarur ishlarni davlat bajarishi lozim degan g'oyani ilgari surgan edilar. Bu g'oya fransuz xayoliy sotsialistlari Sen Semon, Sharl Fure asarlarida keyinchalik rivojlantirildi. Ular bola tarbiyasi bilan asosan davlat shug'ullanishi kerak, degan g'oyani ilgari surganlar. Ammo sharq mutafakkirlari bola tarbiyasi bilan asosan ota-ona shug'ullanishi kerak, degan xulosaga kelganlar. Bu bilan ular oilaviy tarbiyaning roliga katta e'tibor berganlar.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

O'zbeklar qadim -qadimdan bolajon xalq sanaladi. Oilada farzandni dunyoga kelishi ota onalar tomonidan katta quvonch va umid bilan qarshi olinadi. Bola aqli, hushli, ota-onasiga mehribon bo'lib o'sishiga duo-yu, fohialar o'qilib, ziyofatlar beriladi. Milliy qadriyatlarimizga muvofiq bolaga tug'ilgandan so'ng yettinchi kuni sochini olib, cho'miltirib, tabarruk yoshdagi otaxonlarimiz azon, takbir aytishlari azaldan an'anaga aylangan va har bir oilada uning turmush darajasidan qat'iy nazar o'tkaziladi. Ota-ona uchun farzandlarining tarbiyasi muhim sanalgan. Chunki insonlarda odamiylik fazilatlarini bildiradigan, uni boshqa mavjudotlardan farq qiladigan narsa uning, ongi va xulq-atvoridir. Ushbu soha bo'yicha bir qancha ilmiy tadqiqotlar va metodologik adabiyotlar mavjud. Xususan, A.T.Makarova, Y.V.Yusupov, B.S.Gorshkova, N.S.Polivodaning ilmiy izlanishlari diqqatga sazovor sanaladi. Shuningdek, O.To'rayevaning "Oilaviy hayot etikasi va psixologiyasi" qo'llanmasida oilada farzand tarbiyasi masalalari yoritib berilgan. Olima qo'llanmada ota onalarga farzand tarbiyalashda sog'lom psixologik muhitni yaratishlari, oilani mustahkamlashga, farzandlarini ma'naviy axloqiy tarbiyalashga, onalarning barcha imkoniyatlardan foydalanishlari haqida o'z fikrlarini bayon etganlar. V. Karimovning "Yoshlarda o'zbek oilasi haqidagi ijtimoiy tasavvurlar" deb nomlangan tadqiqotlarida o'zbek oilasidagi munosabatlarni mustahkamlash, oilada farzand tarbiyasiga umuminsoniy qadriyatlar nuqtai nazaridan munosabatda bo'lib, bolalarni har tomonlama rivojlantirishiga e'tiborli bo'lishni ta'kidlaydi.

Z.H.Jumaevning fikricha, "rivoyat asosida voqelik va tarixiy shaxs bilan bog'liq hodisalar yotadi. G'oyaviy mazmuniga ko'ra, tarixiy rivoyat hamda toponim rivoyatlarga bo'linadi. Tarixiy rivoyatlarda biror shaxs faoliyati va xalq qahramonlari bilan bog'liq hodisalar hikoya qilinadi, axloq va odobning ideal me'yorlari tashviq etilib, muayyan dalillar haqida axborot beriladi. Bunday rivoyatlar Navoiy, Ulug'bek, Ibn Sino, Beruniy, Amir Temur va boshqalar hayoti bilan bog'liq voqea-hodisalar asosida ham yaratilgan. Toponim rivoyatlarda shahar va qishloq, qo'rg'on, saroy, maqbaralar nomi hamda ularning yuzaga kelish sabablari bilan bog'liq voqealar hikoya qilinadi".

Natijalar va tahlil.

Hozirgi zamon pedagogikasi bola shaxsiga hurmat va uning shaxs sifatidagi betakrorligini tan olgan holda yondashishni talab qiladi. Mazkur yondashuvning muhim qirralaridan biri bolaning o'ziga xos jihatlariga putur yetkazmagan holda unda o'z-o'zini hurmat qilish, doimiy ravishda barkamollikka erishishga intilish kabi sifatlarni qaror toptirishni nazarda tutishdir. Olimlarning ta'kidlashicha, bola xarakteri asosan u 5 yoshga to'lgunga qadar shakllanadi. Keyingi yosh bosqichlarida uning shaxsiyati asta-sekin rivojlanib boradi. Demak, bolaning qay tarzda shakllanishi uning kelajakdagi hayoti mazmunini belgilaydi.

Milliy qadriyatlarimiz vositasida axloqiy sifatlarni shakllantirishda ota-onalar asosan, ikki metoddan foydalanishlari lozim.

Birinchisi ishonirish – bolaga kattaligidanoq bu ishni qilish kerak, chunki uni amalga oshirish u yoki bu sabablarga ko'ra zarur deya uqtiriladi. Bola o'zi bajargan ishning foydali va zarurligiga ertak, doston qahramonlari timsolida ishoniriladi. Masalan, bolaga nima sababdan ovqatlanishdan oldin qo'lini yuvishi kerakligi, o'z o'rnini yig'ishtirish, o'yinchoqlarini joyiga tartib bilan qo'yishi zarurligi, do'stlashish va do'stga sadoqatli bo'lishning foydaliligi kabi g'oyalar biror ertak asosida yaratilgan diafilmlar, kinofilmlardagi obrazlar orqali ko'rsatib beriladi.

Ikkinchisi—bolalarni ertak qahramonlaridan ta'sirlanib faoliyat ko'rsatish orqali ijobiy fazilatlarini egallashga undash. Bolalarni mehnat qilish, yaxshilik, sabr-bardoshga undashda maqollardan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Bola muayyan ijobiy faoliyatni tartibli va izchil takrorlasa, u odatga aylanadi. Odatlanish kundalik tartib-intizomga rioya qilish, jumladan, salomlashish odobi, do'stga samimiy munosabat, ota-ona hurmatini saqlay bilish kabi faoliyatning ko'plab turlarini qamrab oladi.

Milliy qadriyatlar asosida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda axloqiy sifatlarni yetakchi ehtiyojlar o'zini predmetli muhitda tasdiqlashga intilish va o'yin faoliyatida bilishga oid qiziqishlarning xilma-xilligi hisoblanadi. Mazkur jarayonda maktabgacha yosh muhim o'ringa ega. Bu jarayonda bola shaxsida intensiv o'sish va sifat jihatidan yuzaga kelgan o'zgarishlarini ko'rish mumkin. 2-3 yoshli bolalarda milliy qadriyatlar yordamida axloqiy xulq atvorni tarbiyalash, uning bilishga doir qiziqishlarini o'stirish, axloq qoidalarni bilib olishlari qabul qilish va sezuvchanlik hisoblanadi. Milliy qadriyatlar yuzasidan tayyorlangan qo'llanmalarda ijtimoiy hodisalarni, mardlik, ona vatanni dushmandan himoya etish, an'analar (rostgo'ylik, iltifot va nazokat, tartib va intizom, axloqiy odatlar), mehnat an'analari (uy, hovlilarni saranjom tutish, daraxt ekish, ularni parvarishlash), va boshqa turmush hodisalari ifodalanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari va oilada milliy qadriyatlarni o'rganish bo'yicha barcha mashg'ulotlar bolalarning o'z millati bilan faxrlanish, vatanini sevish, shu yurt farzandi ekanligidan g'ururlanish hislarini hosil qilishi, bir so'z bilan aytganda axloqiylik sifatlarni tarbiyalamog'i kerak..

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. A-D / 5 jildli. Birinchi jild. A.Madvaliev tahriri ostida. – T.: -O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 679 b.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. Ye-M / 5 jildli. Ikkinchi jild. A.Madvaliev tahriri ostida. – T.: -O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 671 b.
3. Qodirova F.R. Maktabga tayyorlov guruhida nutq o'stirish mashg'ulotlari – T.: 2009. – 32 b.
4. Yuldosheva D. O'zbek bolalar folklori tilida zoonimlar. Fil.fan.nom....dis.-T.: O'z.R FAA A.Navoiy nomidagi til va adabiyot instituti, 2007. - 124 b.
5. Valiyeva F.R., Sharipova G.N. Innovative technologies in improving the management of preschool educational organizations//International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE) DOI:10.9756/INTJECSE/V14I5.94 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 05 2022
6. Abdullayeva N.Sh. Leader competency and its specific characteristics in managing the school education system// American Journal Of Social Sciences And Humanity Research eISSN:2771-2141 Pages:152-158|Crossref DOI:https://doi.org/10.37547/ajsshr/Volume04Issue02-23 Published Date: 2024-02-29http://theusajournals.com/index.php/ajsshr/article/view/2548
7. Abdullayeva N.Sh. Improving the preschool education system on the basis of cluster technologies// Turkish Journal of Physiotherapy and Rehabilitation, B. 36872-36886 2021 y